

PLASTIK MAXSULOTLARI VA CHIQINDILAR XAVFI: GLOBAL EKOLOGIK INQIROZ

Ahmedov Safoxon Xurshidxon o'g'li

Farg'ona Politehnika Instituti 75-20 M guruh talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada plastik mahsulotlari va chiqindilarining keltirib chiqarayotgan yomon oqibatlarining ekologiya va insonlarga ta'siri, jahon miqyosida plastik chiqindilar bilan kurash, jahon tajribasi va ko'ngillilar ishtirokida plastik xavfni bartaraf etish yo'llari va uslublari.*

Kalit so'zlar: *plastik mahsulotlar, UNEP, okean, ifloslanish, plastik alternativlar, global harakat.*

Plastik mahsulotlar va uning chiqindilari hozirgi kunda jahon hamjamiyatida eng dolzarb va muammoli masala bo'lib kelmoqda. BMT ning Atrof-muhitni himoya qilish dasturi global plastik xavfidan ogohlantiribgina qolmay, bu muammo bilan kurashayotgan insonlar, qirg'oq ishchilari va jamoalar keltirayotgan yechimlarini qo'llab-quvvatlab, yoritib kelmoqda.

Har yili dunyoda 430 million tonna plastik mahsulotlari ishlab chiqariladi, ularning uchdan ikki qismigina faqat bitta foydalanishdan so'ng chiqindiga ulotiriladi.

Ocean Conservatory keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, har yili okeanlarga 11 million metrik tonna plastik chiqindilar tashaladi, bu esa allaqachon okean sathida suzib yurgan 200 million metrik tonna chiqindiga qo'shimcha degani.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturining Barbados va Sharqiy Karib Ko'k iqtisodiyot laboratoriyasi boshlig'i Nikola Simpsonning so'zlariga ko'ra, hozirgi plastik mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichi asr o'rtalariga kelib okeandagi baliqlardan ko'ra plastik ko'proq bo'lishi prognoz qilinmoqda. Nikola Simpson aytganidek: "Biz faqat plastik mahsulotlar ishlab chiqarishda, ishlab chiqarishda, ishlab chiqarishda davom etayapmiz".

Dunyo plastik ifloslanishni yengishi kerakligining 5 ta sababini ko'rib chiqamiz.

1. Hamma joy polastikdan xoli emas

Plastik mahsulotlar har yerda, ya'ni Filippindan tortib Arktika muzliklarigacha yetib brogan. Bu plastik mahsulotlar turli xil ko'rinishda, sintetik baliq ovlash to'rlaridan tortib, bir marta foydalaniladigan suv idishlari va chiqindi qoplarini o'z ichiga oladi.

Agar okeanlardagi barcha plastik chiqindilar to'plansa, 5 millionta kema konteynerlarini to'ldirishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, agar chiqindilar birma-bir terib chiqilsa, bu 30 000 ming kilometrga yetadi. Bu degani New York dan Avstraliyaning Sydney shahrigacha sayohat qilishga teng.

2. Plastik mahsulotlarning insonlar salomatligiga va ekosistemaga zarar yetkazish jarayonlari

Hajmi kichkina bo'lishiga qaramay, mikro va nano plastik mahsulotlar inson va hayotiy ekotizimlarning salomatligi uchun katta xavf tug'diradi. "Bunday mikroplastik mahsulotlar o'zida turli xildagi kimyoviy elementlarni jamlaydi. Bu esa o'z navbatida

inson salomatligiga ta'sir o'tkazib, insondagi endokrinning o'zgarishiga olib keladi", - Baseda tadqiqotchi.

Simpson aytganidek - "Plastik bizdan uzoqda emas. U har yerda, telefoningizda, kredit kartangizda va qoningizda ham bor".

Faqat insonlargina bunday muammo bilan kurashayotgan emas, okean ekotizimi ham birdek zararlanmoqda. Besada shuni ta'kidlaydi, "Plastik xavfining ortishi, hayvonlarning ko'payishiga va ozuqa zanjirining buzilishiga olib keladi."

3. Plastik ifloslanishni yengish: Qayta foydalanish, Qayta ishlash, Qayta yo'naltirish

Keyingi yigirma yil ichida plastik chiqindilarni 80% ga kamaytirish UNEPning istiqbolli maqsadlaridan biri. Iste'molchilar sifatida o'zgartirishimiz kerak bo'lgan o'zgartirishlar kerakli, arzon, erishsa bo'ladigan turlarga bo'linadi.

UNEP ning hisobotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zgartirishimiz kerak bo'lgan birinchi narsa bu haddan tashqari qadoqlanadigan plastik mahsulotlardir. Bunday mahsulotlarga alternativ sifatida qayta ishlab chiqariladigan va ekologik toza mahsulotlarga o'tish kerak bo'ladi.

"Agar biz insonlar mana shunday ekologik, qayta ishlab, foydalansa bo'ladigan plastik mahsulotlardan foydalansak, biz avvalgi yaxshi ekologik holatga erishishimiz mumkin." - Simpson.

Besada qo'shimcha qiladi: "Biz foydalanishimiz kerak bo'lgan asosiy plastik mahsulotlarni aniqlashimiz va qayta ishlab chiqarish uchun infratuzilmani yaxshilashimiz lozim. Muammoni hal qilish uchun qayta ishlab chiqarishga doimo tayana olmaymiz».

Barcha plastik materiallar ham bir xil emas. Shunday qilib, qanday turdagi materiallarni qayta ishlash mumkinligini aniqlash - va qaerda ishlab chiqarish – bu asosiy yechim. Turli xil iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sabablar, shu jumladan infratuzilma, qayta ishlash har doim ham ideal bo'lmasligini anglatadi, deb tushuntiradi Besada.

Biroq, atrof-muhitga kam zarar yetkazadigan plastik alternativlarga o'tish, yuqorida aytib o'tilgan qayta yo'naltirish va diversifikatsiyaga misol bo'ladi.

4. Plastik mahsulotlardan uzoqlashish pul va ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi.

UNEP ning xisob-kitoblariga ko'ra, plastik mahsulotining alternativlariga o'tish keyingi 17 yillikda \$4.5 trillion dollarni tejashi mumkin. Bunday o'zgarish 2024 yilda minglab insonlarni ish bilan ta'minlanishiga va innovatsion g'oyalarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Hisobotga ko'ra, qisqa umr ko'radigan plastmassalar bilan kurashayotgan va bevosita bog'liq bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda 700 ming qo'shimcha ish o'рни va millionlab ishchilar turmush sharoiti yaxshilanadi.

Shunday bo'lsa-da, 2040 yilga kelib har yili qisqa umr ko'radigan plastik mahsulotlardan 100 million metrik tonna plastmassani boshqarish uchun ko'p mehnat talab etiladi. Agar hukumat siyosati plastik ishlab chiqarishdan va ortiqcha

iste'moldan voz kechishni qo'llab-quvvatlamasa, mamlakatlar 227 million tonna bilan qiyin ahvolda qolishlari mumkin.

5. Plastik ifloslanishga chek qo'yish uchun global harakat o'sib bormoqda.

2022-yil mart oyi BMT Atrof-muhit jamg'armasining beshinchi sessiyasida tarixiy qaror bo'ldi. BMTga a'zo 193 davlatning barchasi kelgusi yil oxirigacha majburiy huquqiy kelishuv orqali plastik ifloslanishga chek qo'yishga rozi bo'ldi, deydi Simpson.

Besadaning ta'kidlashicha, barcha ovozlar va manfaatdor tomonlar mutanosib vakdillikka ega bo'lishi va davom etayotgan muzokaralar jarayonida ikki tomonlamalik yo'lida harakat qilishi kerak. Parijda bo'lib o'tgan Hukumatlararo muzokara bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Dunyo uyg'onmoqda, davlatlar, sanot industriyalar va boshqa tashkilotlar bu muammoni yechish uchun harakat qilmoqdalar. Bunday vaziyatda hukumat asosiy harakat qiluvchi tomon hisoblanadi. Ya'ni biror bir davlatda ishlatish uchun endi kerak bo'lmaydigan plastik mahsulotlarga ta'qiq qo'yish hukumatning qo'lida. Qolaversa, hukumatlar innovatsion g'oyalarni qo'llab quvvatlash orqali ham vaziyatni yumshatishlari mumkin.

Sohillarni va daryolarni plastik chiqindilardan tozalash ham ana shu yerdagi ekosistemaga ham ijobiy ta'sir etadi.

Plastmassa ifloslanishini samarali kamaytirish uchun plastikdan foydalanishni kamaytirish zarurati aniq. Bu bizning kundalik xatti-harakatlarimizni o'zgartirishni va plastikdan yaxshiroq alternativa mavjud bo'lganda foydalanmaslikni va faqat juda zarur bo'lganda foydalanishni anglatadi.

Plastmassa yomon boshqarilsa, ifloslanishni keltirib chiqarishi mumkin, ammo uchidamlilik kabi ko'plab afzalliklarga ega. Shuning uchun ko'plab plastmassa buyumlar qayta ishlatilishi yoki turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Plastik buyumlarni tashlashdan oldin ularni qanday qilib qayta ishlatish mumkinligini ko'rib chiqish kerak.

Plastmassani qayta ishlash chiqindilar oqimidagi plastmassa miqdorini kamaytirish uchun plastik chiqindilarni yig'ish va ularni yangi mahsulotlarga qayta ishlashdan iborat.

Yana bir muhim yechim xabardorlikni oshirish va xulq-atvorni o'zgartirish uchun ta'lim berish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, atrof-muhitni himoya qilish har birimizning burchimiz va bunga har birimiz mas'ulmiz. Xoh katta yoshdagi inson yoki kichik yoshdagi bola bo'lsin, barcha o'zining hissasini qo'shishi mumkin. Ko'zimizga arzimadek ko'ringan harakatimiz ham kelajakda tabiatimizning va atrof-muhitning yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Zero, har qanday ishlar avval kichik qadamlardan boshlanadi. Zero O'zbekiston hukumati ham bu muammoni hal qilishga astoydil kirishgan. Bunga yaqqol misol sifatida manzarali va mevali daraxtlarning mahallalarda, jamoat joylarida va guzarlarda umum-xalq xashari sifatida ekilishi ham juda e'tiborga arzigulik holatdir. Bu bilan tabiatga bo'lgan e'tibor nafaqat davlat

tomonidan, qolaversa, xalq tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Qancha ko'p yashillik bo'lsa, shuncha tabiatda go'zallik va poklanish yuzaga keladi. Bu orqali kislorod ko'payib, karbonot angidrid kamayadi, zaharli changlar bir muncha miqdorga yo'qoladi.

Chiqindilarni qayta ishlab chiqarish ham hukumatimiz tomonidan rag'batlantirilmoqda. Asosan chiqindilarni qayta ishlab chiqarishga va tabiatga zararini kamaytirishga bo'lgan innovatsion g'oyalar qo'llav-quvvatlanmoqda va ularga subsidiyalar berib kelinmoqda. Bu orqali mahalliy tadbirkorlarni ham bir vaqtning o'zida qo'llab-quvvatlash amalga oshirilyapti. Qolaversa, hukumat plastik bilan bog'liq jahon tajribasini O'zbekistonda rivojlantirish maqsadida, chet-el tadbirkorlari uchun ham turli xil kelishuvlarni tavsiya qilyapti. Bu bilan ana shu muammoning yechilishiga va investitsiyaning ortishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.unep.org/> UN Environment Programme/
2. <https://solarimpulse.com/> Solarimpulse Foundation/
3. <https://www.linkedin.com/> LinkedIn/